



AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL HERITAGE: HIS ATTITUDE TOWARDS THE PHILOSOPHY OF MAN

Bobur Zokirovich Miltiqboyev

Researcher, National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Ahmad Donish, philosophy, philosophy of man, spirituality, reason, enlightenment, society, morality, values, Eastern philosophy, enlightenment movement.

Received: 19.09.25

Accepted: 20.09.25

Published: 21.09.25

Abstract: This article provides a scholarly analysis of Ahmad Donish's attitude toward the philosophy of man within his philosophical heritage. In his works, Donish particularly emphasizes human spiritual perfection, the role of reason and thinking, man's place in social life, and his responsibility in the development of society. He interprets man not only as a social being but also as a transformative force capable of changing himself and society through enlightenment and science. The study examines Ahmad Donish's views in close connection with Eastern philosophy, the ideas of enlightenment, and national values. The findings demonstrate that issues of human freedom, spirituality, and moral responsibility remain relevant in the modern era.

AHMAD DONISH FALSAFIY MEROSIDA INSON FALSAFASIGA MUNOSABATI

Bobur Zokirovich Miltiqboyev

O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ahmad Donish, falsafa, inson falsafasi, ma'naviyat, tafakkur, ma'rifat, jamiyat, axloq, qadriyat, Sharq falsafasi, ma'rifatparvarlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ahmad Donishning falsafiy merosida inson falsafasiga bildirilgan munosabat ilmiy tahlil qilinadi. Donish o'z asarlarida insonning ma'naviy kamoloti, aql va tafakkur, ijtimoiy hayotdagi o'rni hamda jamiyat taraqqiyotidagi mas'uliyatini alohida ta'kidlaydi. U insonni nafaqat ijtimoiy mavjudot, balki ma'rifat va ilm orqali o'zini va jamiyatni o'zgartiruvchi kuch sifatida talqin etadi. Tadqiqotda Ahmad

Donish qarashlari Sharq falsafasi, ma'rifatparvarlik g'oyalari va milliy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. Insonning erkinligi, ma'naviyati va axloqiy mas'uliyatini yuksaltirish masalalari bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmaganligi ilmiy xulosalar asosida yoritiladi.

АХМАД ДОНИШ В ФИЛОСОФСКОМ НАСЛЕДИИ: ОТНОШЕНИЕ К ФИЛОСОФИИ ЧЕЛОВЕКА

Бобур Закирович Милтиқбоев

Исследователь Национального университета Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ахмад Дониш, философия, философия человека, духовность, мышление, просвещение, общество, нравственность, ценности, философия Востока, просветительство.

Аннотация: В данной статье научно анализируется отношение к философии человека в философском наследии Ахмада Дониша. В своих произведениях Дониш особо подчеркивает духовное совершенствование человека, роль разума и мышления, его место в общественной жизни и ответственность в развитии общества. Он трактует человека не только как социальное существо, но и как силу, способную посредством просвещения и науки изменить себя и общество. В исследовании взгляды Ахмада Дониша рассматриваются в тесной связи с философией Востока, идеями просветительства и национальными ценностями. Научные выводы показывают, что вопросы свободы человека, его духовности и моральной ответственности не утратили своей актуальности и в современную эпоху.

Kirish. Insonni qurshab olgan tabiat haqidagi bilimlarni o'rganilishi va ularning rivojlanishi inson o'zi haqida bilimlarga ega bo'lish ham kuchayib ya'ni insonning o'ziga bo'lgan qiziqishi ortib bordi. Inson borlig'iga doir tadqiqotlar sohani yanada kengroq o'rganish va yangi g'oyalar va o'ziga xos xususiyatlarni ochib erdi. Barcha jonli narsalar, o'simliklar va hayvonlar ichida faqat odam erkin mavjudot bo'lib, tushunish, idrok etish, gapirish va harakat qilish qobiliyatiga ega. Hatti harakatlarida erkinlikka ega bo'lgan, hamma narsani irodasi va ifodasiga ko'ra tushunadigan mavjudotdir. Falsafiy bilimlarning rivojlanishi inson falsafasi yo'nalishi uchun ham alohida ahamiyat kasb etdi. Olimlar inson va uning mohiyatini anglashga, uning buyukligi va inson haqida

ko'proq bilishga intilishi inson falsafasining falsafiy bilimlar tarmogh'ida alohida yo'nalish sifatida ajralib chiqishiga yo'l ochib berdi.

Inson to'g'risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoiti haqida fikr yuritishdan oldin aytish mumkinki inson muammosi barcha zamonlarda ham falsafaning asosiy mavzularidan hisoblangan. Falsafada inson muammosi boshqa fanlar kabi ma'lum bir xususiyatini emas balki bir butun yaxlit sifatida o'rganishga e'tibor qaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Inson mohiyati haqidagi savol faylasuf va olimlarning insonning mohiyati va atributiv xususiyatlarini o'rganish, har bir davr va madaniyat umuminsoniy mohiyatni turli yo'llar bilan tahlil etdi. Masalan: Yevropa mamlakatlarida XVII asr faylasuflari inson mohiyatini aql – idrok orqali ochib berishga harakat qildi. Chunki bu vaqtda Yevropada ilmiy rivojlanish jadal sur'atlar bilan amalga oshirilayotgan edi. Inson falsafasi qadimgi zamonlardan boshlab Sharq va antik davr faylasuflarini qiziqtirib kelgan. Inson falsafasi – bu insonni mohiyati, hayot mazmuni, erkinligi, tafakkuri, va axloqiy tamoyillari, jamiyatdagi o'rni haqidagi fikr yuritadigan falsafiy yo'nalishdir. Ushbu tushuncha insoniyat tarixida turli davrlarda turlicha talqin qilingan bo'lib, Sharq va G'arb mutafakkirlari uni o'z qarashlari asosida izohlaganlar.

Anitik davrda insonni kosmosdagi kichik dunyo mikrokosmos deb hisoblashgan. Suqrot insonni ruh va tananing kombinatsiyasi sifatida tushungan. Uning fikricha tana ruh uchun uy. Ruh aql va axloqdan iborat. Insonning vazifasi har doim axloqiy kamolotga intilishdir.

Demokrit esa Suqrotidan farqli o'laroq inson tabiatning bir qismi sifatida qarab. Ruh ham atomlardan iborat deb hisoblaydi. Tananing o'limi ruhning o'limiga olib keladi deb hisoblaydi.

Aristotel esa insonni ijtimoiy tabiat sifatida belgilab birinchi navbatda ong insonni aql idrokini ko'rsatib beradi deb hisoblaydi. Inson tabiati ikki qismdan ruh va tanadan iborat deb hisoblaydi. Qadimgi zamon faylasuflari insonni kosmik hayotga ya'ni mikrokosmosga tenglashtirgan. Insonni aqllili ijtimoiy hayvon deb tushunishgan[1].

O'rta asrlarda insonga uch birlik sifatida qarash boshlandi. Insonni asosini ruh tashkil qiladi. Yurak, iroda va aql deb hisoblaydi. O'rta asrlarda insonni xudoga o'xshash ekanligini ta'kidladilar. Qadimgi zamon faylasuflari insonni koinotning bir bo'lagi sifatida qarashgan bo'lsa o'rta asrlarda inson va koinot o'rtasida o'tib bo'lmas to'siq bor deb hisobladilar. O'rta asrlarda insonda Xudo nafasi bor deb hisoblashgan.

B. Avgustin o'z qarashlarida insonni xudo bilan bog'liq bo'lgan erkin shaxs sifatida ta'riflaydi. Uning erkinliklariga yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi tanlovni kiritadi. Shaxs o'z xatti-harakatlari uchun javobgardir deb hisoblaydi. Inson o'zidagi yomonliklarni xudosiz bartaraf etolmaydi deb hisoblaydi.

F. Akvinskiy inson mohiyatini ochib berishda Aristotel qarashlaridan foydalanadi. Inson hayvonlar va farishlalar o'rtasidagi oraliq mavjudotdir deb hisoblaydi. Ruh va tana bir xil. Ruh

tanani belgilaydigan dvigateldir deb hisoblaydi. Inson esa ruh va tananing shaxsiy birligi sifatida ko'radi.

Uyg'onish davri falsafasida inson olamning markaziga qo'yiladi. Chunki u koinot va olamning yaratilishida barchasida ishtirok etadi deb hisoblashadi. Inson o'z baxti yoki baxtsizligining yaratuvchisidir. Ilmiy bilimlar va yangi madaniyatlarning shakllanishi ta'sirida T. Gobbs qarashlarida insonni mavjudot emas deb ta'kidlaydi. Jamiyat va insonni o'rganib inson bu bir biriga qarshi bo'lgan bo'ri sifatida ko'radi va hammaga urush qiladi bu jamiyatning tabiiy holati deb qaraydi. R.Dekart insonni aql va fikrlashga ega bo'lgan aqlli mavjudot sifatida belgilaydi[2].

Muhokama. Falsafada inson tafakkuri rationalizm (aqlga asoslangan bilim) va empirizm (tajribaga asoslangan bilim) o'rtasida tahlil qilinadi. Erkinlik – inson o'z fikrlarini, tanlovlarini va qarorlarini o'zi mustaqil qabul qilish huquqiga ega bo'lishi kerak. Mutafakkirlar inson tafakkurining ijtimoiy muhit va ta'lim orqali rivojlanishini ta'kidlaganlar. G'arb falsafasida inson muammosini koinotning bir qismi sifatiuda tushunadi. G'arbda tabiat deganda faqat moddiy, tasgqi dunyoni tushunadi. Bu tashqi tabiat o'zining tog'lari, bog'lari, okeanlari, daryolari va o'zining cheksiz kuchi, rang-barangligi bilan jud ulug'vor. Lekin undan ham ulug'roq dunyo bu insonni ichki dunyosidir. U quyosh, yulduzlar, yer va butun moddiy Koinotdan yuksakroq, bizning shaxsiy jajji hayotlarimizning tor chegarasiga sig'maydigan dunyodir. G'arb odami tashqi dunyoda "o'ziniki" bo'lganidek, bu ichki dunyoda Sharq odami ham xuddi shunday "o'ziniki"dir. Shu bois... G'arb ma'naviy dunyo nima ekanligini, xudo nima ekanligini, inson joni nima ekanligini bilmoqchi, dunyoning siri va mazmuni nimada ekanligini anglab yetmoqchi bo'lsa, u Sharq oyoqlari ostiga cho'kib quloq solishi kerak. Hamonki dunyo hozir ma'lum ma'naviy uyg'onishga muhtoj ekan, bunda u kuchni Sharqdan oladi[3].

Falsafada inson borlig'ini o'rganish qadimiy tarixga ega bo'lib, qadimgi yunon faylasuflari kosmosdagi bir zarra sifatida deb qarashgan bo'lsa. O'rta asr sharq mutafakkirlarining qarashlarida teosentrizm ustuvorlik qilib xudo tomonidan yaratilgan mavjudot sifatida ko'rib uning tabiatida ezgulik va yovuzlik mavjud. Agar odam o'z holiga qo'yilsa, insoniylik ruhida tarbiyalanmasa xudo ne'matini qo'lga kiritish kamdan kam odamga nasib etadi shuning uchun inson doimo izlanish va yaxshilik sari intilishi kerak teosentristik qarashlar mavjud bo'lgan. Ushbu teosentrik g'oyalar yevropa fa;safiy an'anasida XIX asrning o'rtalarigacha hokum surdi. Xristianlikni aks ettiruvchi turli kreasionistik nazaryalarga ko'ra butun dunyo, jumladan jonli dunyo (o'zimliklar, hayvonlar, inson) o'zining mukammal ko'rinishida yaratilgan. Injilning dunyo olti kunda yaratilgani haqidagi rivoyatga asoslangan bu nuqtai-nazar yevropaliklar tafakkurida Davrinning evolyutsion nazariyasi paydo bo'lgunicha hukm surdi.

Teosentrik nazariya asoschilari qadimgi yunon va materialistik qarashlar tarafdorlari kabi oqilona fikrlash va bilim egallash orqali dunyoni anglash mumkin deb emas, muqaddas kitobda ta'riflangan vahiylar orqali amalga oshiriladi. Bu vahiylarni faqat injil aqidalariga e'tiqod qilish orqali tushunib yetish mumkin deb hisoblaydi[4].

Teosentrizm falsafasi antroposentrizm va kosmosentrizmni siqib chiqara boshladi. Uyg'onish davriga kelib, insonga doir yondashuvlarda jiddiy o'zgarishlar bo'ldi. Bu davrda o'zlikni anglash tuyg'usi va ijtimoiy nuqtai-nazari o'sishi natijasida manfaatlarni ifoda eta boshladi. Inson shaxs sifatida kamol topdi. U o'zini o'z shaxsiy hayoti va taqdirning bunyodkori sifatida tobora kuchliroq anglay boshladi. Inson mustaqillikka va tabiatni o'ziga bo'ysundirishga harakat qila boshladi va o'zining ijodiy imkoniyatlari cheksiz ekanligiga ishona boshladi[4]. Yangi davr inson falsafasini asosiy o'ringa chiqardi bu davrga kelib insonni o'rganishga bo'lgan munosabat o'zgardi. Insonga nisbatan bilivchi ongli subyekt sifatida qaray boshladi. Ijtimoiy munosabatlarning asoschisi sifatida qarash yangi yondashuvning keltirib chiqardi. Aynan uyg'onish davri va yangi zamon inson falsafasining Ahmad Donish qarashlarida mavjud ekanligini uning falsafiy merosini o'rganish orqali anglash mumkin. Inson xudo tomonidan yaratilgani va podshoh misolida ijtimoiy munosabatlarning ochib berilishi negizida teosentrstik va yangi zamon inson falsafasining mazmuni aks etadi.

Natija. Inson falsafasi haqidagi bilimlarning o'rganilishi Ahmad Donish falsafasiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Uning ilmiy merosida inson, bilim va aql orqali jamiyatni rivojlantirishi lozimligi tahlil qilingan. Odil jamiyat qurishning asosi sifatida ilm, tafakkur va axloq asosiy omilklardan ekaniga urg'u beradi. Ahmad Donish ta'kidlashicha jamiyat oldidagi mas'uliyatni ta'kidlab, adolatli boshqaruv, tenglik va ilmiy taraqqiyot insonning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Ahmad Donish falsafiy merosida inson falsafasiga shunday yondashuvda o'rta asrlar sharq faylasuflarining ahamiyati katta edi. Insonning yaratilishi haqida shunday deydi: oltin, kumush ma'danlar kabi insonlar ham bir madandir. Inson aslida tuproqdan yaratilgan. Yer qornida bir-biriga ox'shamagan har turlik madanlar bordur. Shunga o'xshash inson ham ichki va tashqi quvvatlariga ko'ra hech birlari ikkinchi birlariga o'xshamaydilar. Ba'zilarining temirdek dillari qattiq, ba'zilar qo'rg'oshindek yumshoq. Hech bir ma'dan har qancha ishlatilgani bilan o'z sifatini yo'qotib, ikkinchi ma'danga aylanmaydi. Shunga o'xshash inson ham har qancha tarbiya ko'rsa ham, asli yaratilishidagi sifatidan butunlayajralib keta olmaydilar. Xulosa shulki, hayot dunyosida jonlik narsalar uch turlik sifatga egadirlar. Bu esa hayvoniy, shaytoniy va malakoniylar sifatlaridir. Bu uch quvvatni birlashtirib, shuning hamiridan bir jonlik narsa yaratib, uning otini inson qo'yganlar[5].

Ahmad Donish inson falsafasida insonni avvallo Xudo yaratgani va uning axloqli bo'lishi, yomon xulq egasidan shayton hazar qilishi, inson axloqli bo'lishi hamda insonlarning maqsadi bir xil bo'lishi mumkin emas. Har kim o'z foydasini yoki o'zidagi zararni kamaytirish uning o'ziga xos bir turlik yo'li bo'ladi. Har bir insonni o'ylagan o'z fikri bo'ladi deya ta'kidlaydi.

Dunyoda ba'zi kishilar shunday oliyximmat bo'ladilarki, xonlarning taxtiga qadam, podshoxlarning tojiga nazar tashmlamaydilar. Oy falagi ostidagi barcha narsalardan ko'z yumadilar. Farishtalar olamiga qo'shilmaguncha hech joyda to'xtamaydilar. Ba'zi bir odamlar esa shunday past tabiatdirlarki, gunohning kuliga bulg'anib yotishni, sinjobu-samur to'shaklariga o'ralib o'tirishdan yaxshiroq ko'radilar. Kaykovus taxtiga minishdan shipirindi axlat ustida yonboshlab yotishni ortiqroq biladilar. Yana bir xillari esa yaxshilik sifatlarida ularni farishtadan ortiq desa ham bo'ladi. Aksincha ba'zi birlaridan it ham yaxshiroq ko'rinadi.

Ahmad Donish insonni ta'riflashda uning axloqiga ko'proq urg'u beradi. Uning inson haqidagi falsafiy qarashlarida o'rta asr sharq uyg'onish davri allomalarining yondashuvi sezilib tuardi. Din falsafasi ham uning qarashlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining qarashlarida insonni nazariy aql boshqaradi deb hisoblashgan. Al-Farobiy qayd etishicha "Inson shaxsini shakllantiradigan, uni boshqa mahluqotlardan ajiratib turadigan va unda insoniy hislatlarni rivojlantiradigan narsa uning faol aqlidir. Bu kuch avval- boshda faqat qobiliyatdir bu quvvat o'ylash, mulohaza yuritishga qobil, ammo hayotga tadbiiq etish, ya'ni joriy qilishga qobil emas"[6]. Aqlni hayotga tadbiiq etish uchun faol kuch kerak. Faol kuch bu aqlidir. Aynan shu aql insonni imkoniyatlarini tashqi voqealarga ta'sir etishi va uni rivojlanishiga turtki beradi.

Yusuf Hos Xojibning qayd etishicha inson dunyoda abadiy emas, bu dunyoga kjelgan har qanday odam vaqti kelgacg ketadi. Insonni umrining qiymati qancha vaqt yashasgani bilan emas, qanday ezgu ishlar amalga oshirgani, hayotda qoldirgan izi bilan belgilanadi. Inson olamdan o'tganidan keyin, bu dunyoda ikki xil biri yomon, ikkinchisi yaxshi degan nom qoladi. Inson ozidan iloji boricha yaxshi nom qoldirishi, yaxshi olqish olishi lozim deb ta'kidlagan[4, 40]. Shunday sharq allomlari qarashlarining o'z aksi Donish qarashlarida ham namoyon bo'ladi.

Bilgil Ollox cheksiz ilmi bilan azaldan-azalgacha bildikim, butun kamolotning manbai o'zidir. Yer-ko'kda naqadar sanoqsiz ajoyib va g'aroyib narsalarni yaratdi. So'ngra bu narsalarni U yaratdi.

So'ngra bu narsalarni dunyoga chiqarishni istab, tayyorgarlik ko'rib, aqllar, naqshlar, falaklar va yulduzlarni yaratdi. Bu esa nurlik basit ruhlar va basit jismlardir. Bularning vositasi bilan unsur (element) olamini hamda hayvonot va jamodat (o'simlik va jonli-jonsizlar) olamini yaratdi. Bular esa tarkiblik yolg'iz ruhlar va jismlardir. Eng yengil va eng yupqa ruh hamda jismlar ichida yorug'likdan boshqasi ko'rinmaydi. Eng og'ir va eng quyuq ruh hamda jismlar ichida

qorong'ulkikdan boshqasi paydo bo'lmaydi. Endi bularning har ikkalasining-yorug'lik va qorong'ulik, nur va zulmatning haqiqati ochilmay qoldi. Holbuki, Ollox o'z qudratini hamma vaqt ko'rsatishni istar edi. Shuning uchun nur va zulmat haqiqatini yuzaga chiqarmoqchi bo'ldi. Bu ishni bajarishda nur va zulmat sifatlariga ega bo'lgan jismni yaratishga to'g'ri keldi. U esa kamolotga yetgan inson bo'lib, nur va zulmat haqiqatini ochuvchidir. ... insonni yaratilish tartibi nurli aql va qorong'u nafsdan iborat[5, 19].

Ahmad Donishning ushbu fikrlaridan anglash mumkinki, insonni imon va nafs o'rtasidagi ruh siufatida tushunadi. Imonni kuchli bo'lishi aqlga nafsning g'alabasi esa zulmatga olib boradi deyish mumkin. Insonni yaratilishida aql nuri g'olib bo'lsa g'ayb olamini sirlarini topmoqqa intiladi. Agarda nafs kasofati g'olibbo'lsa dunyo sirlarini ochishga urinadi deya ta'kidlagan. Ahmad donish fikricha inson ichki olamida aql va nafsning kurashish nur va zulmat o'rtasidagi ziddiyatga qiyoslaydi.

Donish qarashlarida Kimki g'ayb olamiga mayli tushar ekan, u najot topuvchilardsandir. Ya'ni aql bilan yashashi, aqlga tayanishi uning baxt – saodatga erishishiga olib keladi. Aksincha tubanlik olamiga botishi uning zulmatga tushishiga baxtsizlikka yetishiga ishira beradi. “Koinotning baland va pastliklardan iborat ekanligi inson hayoti ham baland pasliklardan iborat ekanligiga bog'lab, hayot olami buzilish va tuzilishdan iborat bo'lib uning buzilishi tzuilishdan ko'proqdir. Shunday bo'lgacha, tubalik olamiga qiziquvchilar balandlik olamini istovchilardan ko'pdir. Chunki paydo bo'lishning o'zi zulmat va kasofatni talab qiladi”[5, 20]. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, inson olamida yaxshilik va yomonlik o'rtasida ziddiyat mavjud bo'lib, bu ziddiyat inson hayoti davomida doimiy kurash olib borishi va insonning o'z tanlovi orqali yorug'likka erishishi yoki zulmatga botishiga ishora qiladi.

Ahmad Donishning insonni nima uchun yaratilgani va yaxshiligi nimada va nimani xoxlashi kerakligiga ishor berib o'z qarashlarida insonni yaxshilikka intilishi balandlik va nurga erishish uchun aql, ilm yo'lidan yurishi kerak deb hisoblaydi. Haq yo'li yopiq bo'lib uning yo'l boshchisi Olloxdir. Buzuq yo'y ochiq bo'lib uning yo'l boshchisi shaytondir. Birov olib bormagunicha haq yo'lga borib bo'lmaydi. Buzuq yo'lga esa olib boruvchining keragi yo'q. chunki bu yo'lga yurishga kasofati nafsning o'zi tayyordir. Hamda bu yo'lning lazzatlik mevalari naqddir. Haq yo'lining manfaatlari va natijalari nasiyadir. Shunday bo'lsada oliy martabalik ruhlar unday nasiyani nahs deb biladilar. Bu fikrlaridan haq yo'lga erishish uchun ilm olish kerak. Ilmni esa murabbiydan oladi. Ya'ni haq yo'lga kimdir olib borishiga ishora. Haq yo'lning manfaatlari va natijalari nasiyadir deganda ilm olish va aqlga ega bo'lish uchun uzoq yillar kerak bo'ladi. Tubanlikning oxiri zulmat ekanligini (do'zaxga ishora bermoqda) bilsada oxirida najot bordir deb o'ylaydi. Va oxiri halokatga uchraydi deb yozadi. Shuning uchun har biro dam o'zining paydo bo'lishi haqida o'ylashi lozimdir deb ta'kidlaydi.

Donish o'z qarashlarida nurga ya'ni aqlga intilishi nafsga berilib dunyo sirini bilishga intilishdan tiyilishga chaqirgan. Dunyo sirlarini bilishga intilish nafs yo'ligi kirishi aqlsizlik va ilmni tark qilish halokat chuquriga tushib baxtsizliklardan sanalishi mumkin deydi. G'ayb olamini bilishga intilishi uning komillik darajasiga erishishga olib keladi.

Odam yaratilganidan so'ngra uning tuganmans baxti ilm va ma'rifatda bo'ladi. Uning ixtiyori o'zida bo'lsa, ilmsizlik va dangasalikka bo'yin egmasin, chunki ilm va ma'rifat ruhning istagi bo'lib, rohatparastlik va d'angasalik nafsning tilagidir. Ilm-ma'rifat hosil qilish tan xohishi, yalqovlik esa badan rohatini sevishtir[5, 23-24].

Aql insonni tubanlik va zulmatdan qutqaruvchi yagona yo'l sifatida ko'rib, doimo intilish va izlanishda bo'lishlikni afzal ko'radi. Ilm o'rganish orqali inson yuksak martabaga ega bo'ladi olloxni taniydi va yomonliklardan tiyiladi. Bu esa inson mohiyatini anglashga olib keladi. Uning qarashlarida inson falsafasiga doir shunday fikrlarning paydo bo'lishida sharq allomlarining madaniy merosining o'rni va roli kattadir. Ruh quvvati yaxshilika buyuruvchi va yomonlikdan saqlovchidir. Nafs quvvati esa yomonlikka yurgizuvchi va yaxshilikdan qaytaruvchidir. Mana shulardan qaysi biri g'alaba qilsa ikkinchisi yengiladi[5, 25].

Inson erkinligi o'z qo'lida ekanligini ta'kidlab "Shuni bilish kerakki, biro dam o'z vijdoni bilan o'zini tekshirib ko'rsa, u to'g'ri yo'l topganmi yoki adashganmi, baddaxtmi yoki baxtlimi ekanini bilib oladi. Agar uning yaxshiligi g'olib kelsa u odam baxtli, agarda uning yomonligi ortib ketsa, unday odam baxtsizdir. Bordiyu yaxshilik va yomonlik barobar bo'lsa, azobga qolishi va undan qutilishi ham shunga nisbatan bo'ladi. Demak, har kimning qo'lida har xil erkning borligi ma'lum bo'ladi[5, 27].

Inson mohiyatida erkinlik tushunchasi mavjud bo'lib uning erkinligi o'z qo'lida ya'ni yaxshilik qilib ilm o'rganib odob-axloq qoidalariga rioya qilish orqali nurga erishishi, yoki kufrga berilib gunoh ishlarni qilish orqali zulmatga botishi mumkinligi haqida yozadi. Insonning mohiyatida erkinlik tushunchasini mavjudligi shu tariqa yoritib bergan deyish mumkin.

Ahmad Donish falsafiy ta'limotida inson darajasiga ko'tarilishida aql va adolat hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligiga alohida ahamiyat qaratadi. Shuning uchun yetuk inson adoilatli va ilimli bo'lishi haq yo'lidan yurishi, hukumdorning qarorlar qabul qilishda adolat bilan qarashi xalqni o'z farzandidek otalarcha mexribonlik bilan yaxshi ko'rishi, xalq bilan yumshoqlik muomilada bo'lishi kerakligin ta'kidlaydi. Podshohni Ollox tomonidan tushurilgan ulug' martaba ekanligiga urg'u berib adolat uning asosiy mezon bo'lishi kerakligiga urg'u beradi. Adolat bo'lmagan joyda rivojlanish bo'lmaydi. Tanazzul va botqoqlikka botadi degan g'oya uning qarashlarini markazida turgan. Ahmad Donishning ushbu qarashlari jamiyatni boshqarib turgan podshohlik hayot olamida eng ulug' ishlardan bo'lib, bu ish haqiqatda esa uning bajaruvchisi yer yuzida Xudoga halifalik qilishdir. Shuning uchun u butun amri va farmonlarida uning roziligi bilan ish olib borishi

kerakdur. Shunday bo'lgach, bu xizmatni podshoh ilmi va amal bilangina bajara oladi. Ushbu fikrlar orqali adolat va ilm inson olamining asosi ekanligiga urg'u beradi.

Ahmad Donish "Navodir-ul vaqoe" asarida inson falsafasini podshohlar orqali ochib beradi desak mubolag'a bo'lmaydi. Uning ushbu asarining birinchi fasli Inson nimaga yaratilgani va uning yaxshiligi nimada degan savolni ochib beradi. Podshohlarning haq bilan va xalq bilan qanday muomilada bo'lishi, podshohning o'z amirlari bilan qanday muomilada bo'lishi, yurt ustida turgan amaldor va hokimlarning podshohlarga qilgan tansiq va tortiqlari, podshohlarning xalq bilan qilgan muomilalari va fuqarolarning hojatlari imkoniyat boricha ado qilish haqida to'xtalib o'tadi. Uning davlatni adolat bilan boshqarish va axloqqa amal qilish, podshohning aqlli, zukko bo'lishi haqidagi qarashlari orqali inson mohiyatini o'z yondashuvi orqali ochib bergan.

Uning fikricha inson xudo tomonidan yaratilgan bo'lib, ruh uning tanasida joylashning uning qilgan ishlari yaxshilik va yomonlik orqali nafsni yengishi yoki uning yo'lga kirishi orqali u taqdirini o'zi belgilaydi. Podshohlar ollox tomonidan yerga yuborilgan halifa bo'lib uning asosiy mezoni adolat bo'lishi kerak deb hisoblaydi.

Xulosa. Inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlari til, insonning fikrlash faoliyatini amalga oshiruvchi muhim shakl hisoblanadi. Ong nafaqat insonning mehnat faoliyati, odamlar bilan o'zaro aloqasi, muloqotning universal vositasi bo'lib til bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Shunday ekan Donish qarashlarida ham aynan mana shu jihatlar ustuvor ekanligi seziladi. Ya'ni podshoh va uning amaliy faoliyati misolida inson borlig'ini ochib bergan deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хаврак А.П. Философия. Учебное пособие. –М.: 2005. С-250.
2. Андреев И. П . Происхождение человека и общества. Москва, 1988. С-178.
3. Вивекананда Свами. Философия йога. – Магнитогорск, 1992. – С.488-489.
4. Siddiqov I. Inson falsafasi. Farg'ona 2019. -B-41.
5. Ahmad Donish. Navodir –ul vaqoe. Fors-tojikdan tarjima qiluvchilar. Alixonto'ra Sog'uniiy va A. Xamroyev. Toshkent-Istanbul 2021. -B-442-443.
6. Ал-Форобий. Фозил шаҳар аҳолиси. -Т.: Шарқ, 1999.- Б. 69.